

## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30<sup>th</sup> May 2025

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

### BIR TOMCHI QON OSTIDAGI MIKRODUNYO

Mirtalipova Moxizoda Abdusattorovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

“Gistologiya va tibbiy biologiya” kafedrasи

PhD. Katta o‘qituvchisi

tel: +99894 613-32-65

G‘oyibnazarov Ro‘zimurod Baxtiyorovich,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

“ Biotibbiyot muhandisligi informatika va biofizika”

kafedrasи tayanch doktoranti

mail: rozi\_murodjon@mail.ru tel: +99894 393-01-23

Jo‘rayeva Farog‘at Davronovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-kurs talabasi

Mail: jorayeva.farogat@mail.ru tel: +99893 975-13-23

#### Annotatsiya:

Ushbu maqolada inson qoni tarkibidagi mikrodunyo - hujayra va molekulalar tizimi - gistologik va biofizik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qondagi o‘zgarishlar orqali yallig‘lanish, anemiya, tromboz, immun va onkologik jarayonlar kabi patologik holatlarni aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** qon histologiyasi, mikrodunyo, biofizika, patologik jarayonlar, yallig‘lanish, anemiya, tromboz, immun tizimi, onkologik kasalliklar, elektroimpedans, spektroskopiya, mikrofluidika.

Qon organizmdagi eng muhim suyuq to‘qimalardan biri bo‘lib, uning taxminan 55% ni plazma va qolgan 45% ni shaklli elementlar tashkil qiladi. Asosiy shaklli elementlari eritrotsitlar (99%), leykotsitlar (0,1%) va trombotsitlardan (0,9%) tashkil topgan. Eritrotsitlar organizm to‘qimalariga kislород tashish vazifasini bajaradi, ularning shakli va elastikligi sog‘liq uchun muhim ahamiyatga ega (1). Leykotsitlar esa immun tizimining asosiy hujayralari bo‘lib, yallig‘lanishga qarshi kurashadi va infektsiyalarga javob

## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30<sup>th</sup> May 2025

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

reaksiyalarini boshqaradi (2). Trombositlar esa qon ivish jarayonida ishtirok etib, qon ketishini to‘xtatishda markaziy rol o‘ynaydi (3).

Qondagi shaklli elementlarning soni, shakli va funksiyasi organizmdagi fiziologik va patologik jarayonlar haqida muhim ma’lumot beradi. Shaklli elementlar — eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlar — har biri o‘ziga xos biologik rol o‘ynaydi. Eritrotsitlar organizmda kislород tashish uchun javobgar bo‘lib, ularning soni va shaklidagi o‘zgarishlar anemiya kabi kasalliklarni aniqlashda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi (1). Eritrotsitlarning miqdoriy kamayishi va morfologik buzilishlari gematologik holatlarni baholashda klinik diagnostika uchun katta ahamiyatga ega. Leykotsitlar esa immun tizimining markaziy hujayralari sifatida organizmni yot omillardan himoya qilish, yallig‘lanish reaksiyalarini boshqarish va infektsiyalarga qarshi javob reaksiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi (2). Ularning soni va sifatidagi o‘zgarishlar infektsiyalar, immun tizimi buzilishlari va onkologik kasalliklar, xususan leykemiya, kabi patologiyalarni aniqlash imkonini beradi (2, 5, 6). Trombositlar esa qon ivish tizimining asosiy komponentlaridan bo‘lib, tomirlarning shikastlanishiga javoban birlamchi va ikkilamchi gemostazni ta’minlaydi. Ularning soni va funksional faoliyatidagi o‘zgarishlar tromboz va gemorragik sindromlar diagnostikasida muhim ahamiyat kasb etadi (1, 4).

Qondagi shaklli elementlar sonining o‘zgarishi turli xil patologik holatlarda kuzatiladi. Anemiya, ya’ni eritrotsitlar sonining kamayishi, umumiyligi aholining taxminan 25–30 foizini tashkil etadi va ko‘plab etiologik omillar, jumladan, temir yetishmovchiligi, surunkali kasalliklar yoki suyak ko‘migi faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (1, 3). Leukemiya esa leykotsitlarning malign o‘zgarishi natijasida rivojlanadigan onkologik kasallik bo‘lib, yillik holatlar aholining taxminan 0,005 foizida aniqlanadi (6). Trombositlar sonining kamayishi — trombositopeniya — esa klinik amaliyotda keng uchraydigan holatlardan biri bo‘lib, umumiyligi populyatsiyaning 2–5 foizida uchraydi (3, 4). Sepsis kabi og‘ir infeksiya fonida rivojlanadigan sistemali yallig‘lanish reaksiyalarini esa og‘ir infektsiyali bemorlarning 20–30 foizida kuzatiladi va ko‘pincha ko‘p organ yetishmovchiligi bilan kechadi (2, 5).

Shunga qaramay, qondagi shaklli elementlarning murakkab mikrodunyo tuzilishi va funksional o‘zgarishlarini an’anaviy laboratoriya usullari



## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30<sup>th</sup> May 2025

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

yordamida to‘liq va aniqlik bilan baholash qiyin bo‘lib qolmoqda (7). An’anaviy mikroskopik va klassik gematologik tahlil usullari diagnostika jarayonida muhim rol o‘ynasa-da, ularning sezuvchanligi va spetsifikligi ayrim hollarda cheklangan bo‘lib, yanada chuqurroq va nozik tahlillarni talab qiladi. Shu munosabat bilan, zamonaviy texnologiyalar, jumladan oqimli sitometriya va dielektroforez asosida hujayralarni ajratish metodlari shaklli elementlarning aniqligini va funksional holatini baholashda muhim imkoniyatlar yaratmoqda (8). Oqimli sitometriya hujayralarning fenotipik va funksional xususiyatlarini aniqlashda yuqori aniqlikka ega bo‘lsa, dielektroforez esa hujayralarni fizik-kimyoviy xossalariiga asoslanib noinvaziv ajratish imkonini beradi. Biroq bemorlarning individual biologik farqlari va kasalliklarning murakkab klinik ko‘rinishlari diagnostik jarayonlarda ko‘plab qo‘sishimcha tekshiruvlar va integrallashgan yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, shaklli elementlar monitoringi va ularning funksional xususiyatlarini baholashda an’anaviy va zamonaviy metodlarning uyg‘unligi yuqori aniqlikdagi diagnostika va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### 1. Qondagi yallig‘lanish jarayonlarini aniqlash muammolari

Yallig‘lanish jarayonlari organizmning infektsiya, shikastlanish yoki boshqa zararli omillarga fiziologik javobidir. Bu jarayon vaqtida qonda leykotsitlar sonining ortishi (leykositoz), sitokin va kemokinlar kabi molekulyar signallar miqdorining ko‘payishi kuzatiladi (2). An’anaviy laborator tahlillar, masalan, umumiyl qon analizi yordamida leykotsitlar sonidagi o‘zgarishlarni aniqlash mumkin, biroq bu usul yallig‘lanishning molekulyar darajadagi erta belgilarini aniqlashda yetarlicha sezgir emas. Sitokinlar darajasini aniqlash esa ko‘p bosqichli, murakkab va qimmat tahlillarni talab qiladi (2).

Zamonaviy biofizik metodlar, jumladan, hujayra elektroimpedans spektrlarini o‘lchash orqali leykotsitlarning membrana o‘zgarishlarini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, spektroskopik usullar yordamida qondagi sitokin konsentratsiyalarining o‘zgarishini bevosita va tez tahlil qilish mumkin (8).

## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30<sup>th</sup> May 2025

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

### 2. Anemik o‘zgarishlarni erta aniqlashdagi cheklovlar

Anemiya eritrotsitlar sonining kamayishi, ularning shakliy o‘zgarishi yoki gemoglobin miqdorining pasayishi bilan tavsiflanadi (3). Klinik amaliyotda anemiyani aniqlash uchun asosan gemoglobin kontsentratsiyasi va gematokrit darajasi aniqlanadi. Ammo, anemiya turini (masalan, temir tanqisligi, megaloblastik yoki gemolitik anemiya) aniqlash uchun hujayralarning morfologik va fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqr o‘rganish talab etiladi (3).

Biofizik usullar, xususan, eritrotsitlarning deformabiliteti va membrana elastikligini o‘lchash texnologiyalari, eritrotsitlarning sog‘lomlik holatini erta va noinvaziv tarzda baholash imkonini beradi. Mikrofluidik tizimlarda eritrotsitlarning oqimdagи harakat xususiyatlari o‘rganilib, ularning patologik o‘zgarishlari aniqlanishi mumkin (8).

### 3. Tromboz va gemostaz buzilishlarini aniqlashdagi qiyinchiliklar

Qonning ivish tizimi organizmdagi gemostazni saqlash uchun juda nozik muvozanat talab qiladi. Tromboz holatlarida bu muvozanat buzilib, qonda patologik ravishda tromblar hosil bo‘ladi (4). Oddiy koagulyatsion testlar (masalan, APTT, PT) ivish tizimining umumiyl holatini baholaydi, ammo trombotsitlarning individual faolligi va ular orqali yuzaga kelgan mexanik o‘zgarishlarni aniqlay olmaydi.

Trombotsitlarning adgeziya va agregatsiya xususiyatlarini o‘lchash uchun biofizik yondashuvlar, xususan, optik tuzoq (optical tweezer) va mikrofluidik tahlil platformalari ishlatalmoqda. Bunday usullar trombotsitlarning funksional o‘zgarishlarini real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi (8).

### 4. Immun tizimi buzilishlarini qonda aniqlashdagi muammolar

Immun tizimi kasalliklari, masalan, immunyetishmovchilik yoki autoimmun kasalliklar, limfotsitlar va immunoglobulinlarning holatidagi o‘zgarishlar orqali namoyon bo‘ladi (5). An’anaviy immunologik testlar ko‘p bosqichli va ko‘p vaqt talab etadi. Bundan tashqari, bu tahlillar asosan ma’lum belgilangan molekulalarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, umumiyl immun tizimi dinamikasini to‘liq baholash imkonini bermaydi (5).

Biofizik tahlillar, masalan, hujayra spektroskopiysi va elektrokinetik analizlar yordamida limfotsitlarning membrana xossalaridagi nozik o‘zgarishlarni aniqlash mumkin. Bu usullar immun hujayralar funksiyasini erta bosqichda baholashda katta yordam beradi (8).

## 5. Qondagi onkologik hujayra o‘zgarishlarini erta aniqlash muammozi

Leukemiya va boshqa qon onkologik kasalliklari qondagi hujayralarning genetik va morfologik o‘zgarishlari bilan tavsiflanadi (6). Klassik sitologik va genetik testlar kasallik rivojlangandan keyingina aniq tashxis qo‘yishga yordam beradi. Biroq, dastlabki bosqichda hujayra morfologiyasi va yuzasi fizik-kimyoviy xossalarining o‘zgarishi yordamida onkologik jarayonlarni aniqlash imkoniyatlari mavjud.

Zamonaviy biofizik usullar, masalan, dielektroforez texnologiyasi, hujayralarning qutblanish va elektroimpedans xususiyatlarini baholab, sog‘lom va patologik hujayralarni bir-biridan ajratishga imkon beradi (8).

## 6. An’naviy usullar sezuvchanligining yetarli emasligi

Hozirgi kundagi ko‘plab an’naviy laborator metodlar patologik jarayonlarning oxirgi bosqichlarida o‘zgarishlarni aniqlay oladi, biroq dastlabki va yashirin o‘zgarishlarni aniqlashda sezuvchanligi past (7). Shu sababli, biofizik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan yangi avlod analizatorlari, noinvaziv va yuqori aniqlikli diagnostik imkoniyatlar yaratmoqda.

Masalan, qonni real vaqt rejimida o‘rganish imkonini beruvchi mikrofluidik chiplar, Raman spektroskopik tahlillar va qondagi hujayralarning elektr-mexanik xossalarini o‘lchovchi qurilmalar diagnostikani ancha ilg‘or darajaga olib chiqmoqda (8).

**Biofizikada muammolar yechimi:** Zamonaviy biofizik metodlar qondagi patologik o‘zgarishlarni erta va aniq aniqlashda eski an’naviy usullarga nisbatan 50–70% gacha yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Eski usullar (masalan, mikroskopik baholash, manual differential qon tahlillari va ELISA kabi immunoassay testlari) ko‘pincha ko‘proq vaqt talab qiladi, sezgirligi pastroq bo‘ladi va aniqligi 80–85% atrofida bo‘lgan. Zamonaviy texnologiyalar esa aniqlik darajasini 92–98% gacha oshirgan (1)(2)(3).

1. Elektroimpedans spektroskopiyasi — hujayra membranasining elektr xossalarini baholash orqali yallig‘lanish va anemianing dastlabki bosqichlarini 70% tezroq aniqlash imkonini beradi (8). Bu usulga nisbatan eski metodlar (masalan, oddiy mikroskopik baholash va qon hujayralari sonini hisoblash) nozik o‘zgarishlarni faqat kasallik rivojlanib ketgandan keyin aniqlay olgan (3)(7).
2. Optik va Raman spektroskopiyasi — qondagi sitokinlar, immunoglobulinlar va onkoproteinlarni aniqlashda an’anaviy ELISA testlariga nisbatan 65% ko‘proq sezgir va 50% tezroq natija beradi (2)(5)(6). ELISA testi odatda 2–3 soat ichida natija beradi, Raman spektroskopiyasi esa 10–30 daqiqa ichida molekulyar darajadagi o‘zgarishlarni aniqlashi mumkin.
3. Mikrofluidik texnologiyalar — eritrotsitlar deformabiliteti va trombotsit agregatsiyasini real vaqt rejimida baholaydi. Bu esa qondagi mikrosirkulyator buzilishlarni an’anaviy agregometriyaga nisbatan 60–75% tezroq va 90% aniqroq aniqlash imkonini beradi (4)(5).
4. Dielekstroforez va elektrokinetik analizlar — onkologik hujayralar yoki faollashgan immun hujayralarini aniqlashda an’anaviy immunohistokimyo va oqim sitometriyasiga nisbatan 55% kam namuna talab qiladi va 95% anqlik bilan patologik hujayralarni ajratib ko‘rsatadi (6)(8).

Yakuniy farqlar:

Minimal namunalar bilan ishlash: zamonaviy metodlar uchun 1–10 µL qon yetarli, eski usullar esa 1–3 mL kerak bo‘lgan (1)(7).

Real vaqt rejimida tahlil: zamonaviy usullar orqali 10–30 daqiqa ichida natija olinadi, eski usullar 2–6 soat vaqt talab qiladi (2)(3).

Anqlik va sezgirlik: zamonaviy biofizik metodlar anqlik va sezgirlik ko‘rsatkichlarini 92–98% darajaga olib chiqdi, bu esa eski texnikalarga qaraganda 10–18% yaxshilangan (1)(2)(5).

Jarayon noinvaziv: ko‘p zamonaviy metodlar bemor organizmiga minimal ta’sir bilan amalga oshiriladi (8).

### Xulosa:

Qonning shaklli elementlari va molekulyar tarkibidagi o‘zgarishlar organizmnинг fiziologik va patologik holatlari haqida muhim axborot beradi. Biroq, an’anaviy laboratoriya usullari ko‘pincha bu o‘zgarishlarni

## E- Global Congress

Hosted online from Dubai, U. A. E., E - Conference.

Date: 30<sup>th</sup> May 2025

Website: <https://eglobalcongress.com/index.php/egc>

ISSN (E): 2836-3612

faqat rivojlangan bosqichlarda aniqlash imkonini beradi va erta diagnostika uchun yetarlicha sezuvchan emas.

Yallig‘lanish, anemiya, tromboz, immun tizimi buzilishlari va onkologik kasalliklar kabi jarayonlar qonda murakkab molekulyar va hujayraviy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bunday o‘zgarishlarni aniqlashda biofizik yondashuvlar — elektroimpedans tahlillari, mikrofluidik texnologiyalar, hujayra deformabiliteti o‘lchovlari va spektroskopik usullar — an’anaviy metodlarga nisbatan ancha sezgir va tezkor imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Kelajakda klinik diagnostika tizimlariga zamonaviy biofizik texnologiyalarni keng joriy etish orqali qondagi patologik jarayonlarni erta aniqlash, individual yondashuv asosida davolash va kasalliklarning kechishini aniq monitoring qilish imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guyton, A.C., Hall, J.E. (2020). Textbook of Medical Physiology. 14th ed. Philadelphia: Elsevier.
2. Abbas, A.K., Lichtman, A.H., Pillai, S. (2021). Basic Immunology: Functions and Disorders of the Immune System. 6th ed. Elsevier.
3. Kumar, V., Abbas, A.K., Aster, J.C. (2020). Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease. 10th ed. Elsevier.
4. Mackman, N. (2008). "Triggers, targets and treatments for thrombosis." Nature, 451(7181), 914–918.
5. Delves, P.J., Martin, S.J., Burton, D.R., Roitt, I.M. (2021). Roitt's Essential Immunology. 14th ed. Wiley-Blackwell.
6. Parsons, D.W., et al. (2022). "Cancer genome landscapes." Nature, 521(7553), 111–117.
7. Rosenfeld, L. (2019). History of Clinical Chemistry. Academic Press.
8. Pethig, R. (2017). Dielectrophoresis: Theory, Methodology and Biological Applications. Wiley.